

## HAR QANDAY SUVNI ICHISHGA YAROQLI YOKI YAROQLI EMASLIGINI QANDAY ANIQLASA BO‘LADI? UY SHAROITIDA SUVNI TOZALASH USULLARI

Iskandarova Intizor G‘affarovna

*Surxondaryo viloyati Qiziriq tumani 31-umumiy o‘rta ta’lim maktabi Biologiya fani  
o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada suvni ichishga yaroqli yoki yaroqli emasligini qanday aniqlash mumkinligi hamda uy sharoitida suvni tozalash usullari haqida yoritib berilgan. Bundan tashqari suvning ifloslanish turlari, qanday qilib toza ichimlik suvini tejash mumkinligi to‘g‘risida to‘xtalib o‘tiladi.*

**Аннотация:** *В этой статье объясняется, как определить, безопасна ли вода для питья, и как очистить воду в домашних условиях. Кроме того, будут обсуждаться виды загрязнения воды и способы сохранения чистой питьевой воды.*

**Abstract:** *This article explains how to determine if water is safe to drink and how to clean water at home. In addition, the types of water pollution and how to save clean drinking water will be discussed. This article explains how to determine if water is safe to drink and how to clean water at home. In addition, the types of water pollution and how to save clean drinking water will be discussed.*

**Kalit so‘zlar:** *Suvning ifloslanishi, toza ichimlik suvi, qaynatish, tosh, yod, filtr, tuz, suvning sifati, salomatlik.*

**Ключевые слова:** *Загрязнение воды, чистая питьевая вода, кипячение, камень, йод, фильтр, соль, качество воды, здоровье.*

**Key words:** *Water pollution, clean drinking water, boiling, stone, iodine, filter, salt, water quality, health.*

### KIRISH QISM

Toza ichimlik suvi ko‘pchilik tuman-u, qishloqlarda ayniqsa, eng chekka hududlarda yashaydigan aholini qiynaydigan muammolar ro‘yxati boshida turadi. Bugun Qoraqalpoqning iqlimi eng og‘ir manzillariga, Surxonning olis tog‘li hududlariga toza ichimlik suvini yetkazish masalasiga Davlat siyosati darajasida qaralmoqda. Ammo tanganing ikki tomoni bor deganlaridek, ichimlik suvi bilan ta‘minlash borasida mamlakatning har bir nuqtasida islohotlar qilinayotgan shu kunlarda ham insonlarni bu mavzudagi dardlariga butunlay barham berilgani yo‘q, deydi Iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlari federatsiyasi yetakchi mutaxassisi Gulnoza Sharafova.

Ichimlik suvini sifatini belgilovchi asosiy ko‘rsatkich uning minerallashuvi bilan belgilanadi. Agar suvning tarkibida minerallar miqdori 1 gramm/litr bo‘lsa ichishga yaroqli hisoblanadi. Ichimlik suvining asosiy manbai yerosti suvlari sanaladi. Yerosti suvlariga grunt, qatlamlar orasidagi suvlar hamda mineral suvlar kiradi. Hozirgi kunda yerosti suvlarining sifatiga tabiiy (atmosfera yog‘inlari) va texnogen omillar kuchli ta‘sir etganligi sababli ichimlik suvining sifati pasaymoqda. Suvning minerallashuviga ta‘sir qiluvchi asosiy omil qishloq

xo‘jaligida yerlarning sug‘orish savodxonligining pastligi va buning oqibatida yer osti suvlarining umumiy minerallashuv darajasining ko‘tarilib ketishiga olib kelmoqda...

### **ASOSIY QISM**

Suvning sifat tarkibiga agrar sohada foydalanib kelinayotgan nitrat, nitrit va pistisit kabi kimyoviy moddalarning intensiv foydalanishi ta‘sir etmoqda. Misol uchun, Samarqand viloyatining yerosti suvlari asosiy zaxirasi Zarafshon artezian havzasi hisoblanadi. Ushbu artezian havzasi 11 ta konga ajratilgan bo‘lib, ular ichish uchun yaroqlidir. Qishloq joylardagi ayrim aholi mazkur kon suvlaridan foydalanmay, uning o‘rniga gurunt suvlaridan foydalanadi. Gurunt suvlarining chuqurligi 0-40 metrgacha bo‘lib, odatda iste‘mol qilish uchun tavsiya etilmaydi. Ammo aholining bir qismi ushbu suvlardan foydalanishadi. Buning oqibatida buyrak, o‘t qopi, turli bakteriologik kasalliklar kelib chiqib, aholining umumiy salomatligiga ta‘sir qilmoqda.

Birinchi o‘rinda barcha hududlarda suvning sifati laboratoriya tekshiruvi asosida o‘rganilishi kerak. Ichishga yaroqsiz suvni iste‘mol qilayotgan aholi punktlarini toza va ichishga yaroqli bo‘lgan suv bilan ta‘minlashni texnologik usullarini qo‘llagan holda sifatini oshirish zarur. Bu bo‘yicha maxsus suv filtrlarini qo‘llash tavsiya etiladi. Ushbu filtrlarning asosiy vazifasi suvni zararli moddalardan tozalash yoki yetishmaydigan kimyoviy elementlar bilan boyitishdan iborat. Suvni kimyoviy usulda zararli bakteriyalardan tozalash va shundan keyingina aholiga ichimlik suvi sifatida uzatish mumkin. Yoki yerosti suvlarining yangi konlarini gidrogeologik qidiruv asosida aniqlash hamda aholini shu orqali sifatli suv bilan ta‘minlash mumkin.

Suvsiz uzoqqa borib bo‘lmaydi — shaharda ham, yovvoyi tabiat qo‘ynida ham. Agar birinchi holatda, eng yaqin do‘konga bir kirib chiqish bilan chanqoq qondirilsa, ikkinchisida vaziyat ancha murakkabroq. Albatta, cho‘lda bo‘lmasangiz suv baribir topiladi. Lekin duch kelgan suvni ichib bo‘ladimi?

Ichib bo‘lmaydi. Hech qursa, suvni tashqi aralashmalardan tozalamasdan turib ichish yaramaydi. Albatta, dala sharoitlarida kimyoviy zararlangan suvni tozalab bo‘lmaydi, lekin shubhali jilg‘a yoki ariqdan jildirab oqib kelayotgan suvdan olib, uni tozalab, iste‘molga yaroqli holatga keltirish mumkin. Bugun sizga suvni tozalashning oltita oddiy yo‘lini hikoya qilamiz, ularning har biri yosh bolaning ham qo‘lidan keladi.

Qaynatish — bu suvni tozalashning eng oddiy va sinalgan usuli, faqatgina yoningizda gugurt va o‘tin bo‘lsa bas. Shubhali suvni yarim soat qaynatish kerak. Shu muddatda suv zararlardan xalos bo‘ladi.

Tosh — Agar yoningizda olovga bardosh bera oluvchi birorta idish bo‘masa, gulxanda toshlarni (40–60 daqiqa) qizdirib, uni suv to‘latilgan idishga soling.

Yod — Agar tabiat bo‘ylab sayohatga oldindan tayyorlangan bo‘lsangiz, albatta, yoningizda yaralarning gazak olishiga qarshi preparatlar bo‘lishi kerak. Yod tabletkalari ham suvni tozalab bera oladi — bu holda suvning ta‘mi juda bemaza bo‘ladi, lekin unutmang, tanlaydigan sharoitda emassiz.

Filtr — O‘zingiz bilan suvni tozalovchi filtr olib yuradigan darajada ehtiyotkor emassiz, bilamiz. Lekin idish bo‘lsa uni o‘zingiz, har qanday sharoitda yasashingiz mumkin. Oddiy plastik shisha ham ideal idish hisoblanadi. Uning tubida bir necha teshik hosil qiling, keyin

idishning ichiga bir necha qavat qilib buklangan mato joylashtiring. Ustidan bir qatlam qum yoki tuproq joylashtirib, ustidan boyagi iflos suvni quyung. Suvni bir necha bor shu yo‘sinda tozalab oling. Agar imkoni bo‘lsa, qo‘lbola filtrning eng pastki qatlamini ko‘mirdan tayyorlash kerak.

Tuz – Bu suvni tozalashning juda oddiy, lekin so‘nggi chorasi. Tuz xavfli infeksiyalarni o‘ldirmaydi, lekin suvni biroz tozalab beradi. Agar sizda boshqa hech qanday variant bo‘lmasa – kamida shunisidan foydalaning. Yuz gramm tuz bir yarim-ikki litr suvga yetadi: faqat ichish oldidan superichimligingizni yaxshilab aralashtirib, yarim soatcha tinishiga yo‘l qo‘yib bering.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, Har bir narsaning o‘z nihoyasi bo‘lganidek, ichishga yaroqli toza suvning ham o‘z yakuni bor. Lekin uni ehtiyotlab, aql bilan sarflab “umri”ni uzaytirish o‘z qo‘limizda. Ekspertlarimizning o‘rganishlariga qaraganda 2050 yilga borib O‘zbekistonda joriy suv tanqisligi besh barobarga oshar ekan. Oldimizdan oqqan suvning qadriga yetmasak, bundan ham ayanchli holga kelishi mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Xalq so‘zi gazetasi. 17:08 29 Iyul 2019
2. [https://uzsuv.uz/uz/posts/suv\\_tugamas](https://uzsuv.uz/uz/posts/suv_tugamas)
3. <https://kun.uz/news/2017/05/01>
4. Gazeta.uz sayti